Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 82
FILOLOGIYA

MUROD MUHAMMAD DO'STNING «LOLAZOR» ROMANIDA TUSH LAVHALARI: QAHRAMON ONGINING RAMZIY IFODASI

Gulbahor Muhammad Sobir qizi Mansurjonova*
Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti
✉ mansurjonovagulbahor08@gmail.com

ANNOTATSIYA

Tezisda Murod Muhammad Do'stning «Lolazor» romanidagi tush lavhalari Z. Freydning tush ishlovi va Yu. M. Lotmanning «tush – semiotik darcha» qarashlari asosida tahlil qilinib, ularning obraz yaratishdagi vazifasi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar

tush lavhasi, bosiriq, ramz, takror, istak, xavotir, talqin, «Lolazor».

DOI: 10.5281/zenodo.23828469

Tush tasviri jahon va o'zbek adabiyotida qadimdan qahramon ichki dunyosini ochishning sinalgan vositasi bo'lib kelgan. Tushda personaj kunduzgi hayotda o'ziga ham tan olmaydigan istak va qo'rquvlarga duch keladi, muallif esa ularni bevosita aytmasdan, ramziy manzaralar orqali kitobxonga yetkazadi. Murod Muhammad Do'stning «Lolazor» romanida [1] tush lavhalari son jihatdan kam, ammo ular syujetning muhim burilish nuqtalariga joylashtirilgan va Nazar Yaxshiboyev obrazini yangi tomondan yoritadi.

Z. Freyd tushni yashirin istakning niqoblangan ijrosi deb biladi va tush ishlovining asosiy usullari sifatida «zichlashtirish» (bir nechta fikrning bitta tasvirda birlashuvi) hamda «ko'chirish» (his-tuyg'uning bir obyektdan boshqasiga o'tishi)ni ajratadi [2]. Yu. M. Lotman esa tushni «semiotik darcha» deb ataydi: tush ma'nosi oldindan belgilanmagan, ochiq belgilar majmuidir, unga ma'noni tush ko'rgan odamning o'zi beradi [3]. Ikki qarashni birlashtirsak, adabiy tushda ikki narsa muhim bo'ladi: tushning o'zi va qahramonning uni qanday ta'bir qilishi.

Romandagi birinchi tush «Bemor» qismlaridan birida, qahramonning kayfiyati ko'tarilgan kuni beriladi: «Bosiriqsiz, tahlikayu qayg'udan xoli, nuqul yoshligini tush ko'rib chiqdi. Go'yo oq bedov minib, qaygadir uzoq safarga chiqqan emishu ortidan Oshno ergashib, meniyam olib ket, jo'ra, deb yalinayotgan emish...» [1, 88-b.]. Freyd nuqtai nazaridan, bu – sof istak tushi. Hayotda yuqori lavozimga ko'tarilgan va Yaxshiboyevni ortda qoldirgan Oshno tushda unga ergashuvchi, iltijo qiluvchiga aylanadi. Qahramonning ta'biri ham bunga mos: «Oq otni neklikka yo'yib, Oshnoni eslab, ko'ngli faxrga to'ldi» [1, 88-b.]. Ya'ni Yaxshiboyev tushni o'z haqidagi afsonani tasdiqlovchi belgi sifatida o'qiydi.

Ikkinchi tush ohangi butunlay boshqacha. U kamtar va sodiq shogird Chorshanbiyev haqida iliq o'ylar bilan uyquga ketgan kechada keladi: «Shirin uyqusi dam o'tib bosiriq bilan almashindi. Emishki, Chorshanbiyev uni guvala devorga taqab qo'yib, biri-biridan sarxil noklar bilan urayotgan emish...» [1, 183-b.]. Bu yerda Freyd aytgan «ko'chirish» yaqqol ko'rinadi. Bundan oldingi boblarda kasalxonaga nomi oshkor etilmagan «elchi» orqali «vitamin» – meva-chevalar yuboriladi [1, 156-b.]. Yaxshiboyev bu sovg'aning beg'araz ekaniga o'zini ishontiradi, ammo ichki xavotir tushda yuzaga chiqadi: sovg'a quroldan, eng ishonchli odam esa hujumchidan iborat bo'lib qoladi.

Diqqatga sazovor tafsilot shundaki, latifa to'qishni yaxshi ko'radigan, o'zini so'z ustasi deb biladigan

qahramon uyg‘ongach «Tushni yozib qo‘yish kerak, deb o‘yladi, lekin yozishga erindi» [1, 183-b.]. Yozuvchi o‘zgalar ustidan kulgi to‘qiydi-yu, o‘z ichki dunyosidan kelgan «matn»ni qayd etishga qiziqmaydi. Bu kichik detal qahramonning o‘z-o‘zini tahlil qilishdan qochishini bilinar-bilinmas kinoya bilan ko‘rsatadi.

Tush keyinroq yana takrorlanadi: «Yana o‘sha bema'ni tush – shogirdi Chorshanbiyev uni qizg‘ish devorga taqab qo‘yib, biri-biridan sarxil noklar bilan urayotgan emish» [1, 306-b.]. Endi qahramon tushni ta'bir qilishga majbur: «Niyati sog‘ emas uning, bir uchi tushdayam ayon beryapti...» [1, 306-b.]. Ayb shogirddan olinib, meva keltirgan elchiga yuklanadi, ya'ni ta'bir yana qahramonning o‘ziga qulay yo‘nalishda ketadi. Shunga qaramay, tush o‘z ishini qiladi: «Irimchi bo‘lmasa-da, tushini o‘ylagani sayin yuragi toriqib ketaverdi» [1, 306-b.], va Yaxshiboyev shu zahoti bosh vrachga qo‘ng‘iroq qilib, uyga ketishni so‘raydi. Takroriy tush shu tariqa syujet harakatini boshqaruvchi omilga aylanadi.

Romanda tush «Qissanavis» qismlarida ham uchraydi, biroq bu yerda u kinoya vositasi sifatida xizmat qiladi. Hikoyachi Muhsina xonimning tushida o‘zini Shirin qiyofasida, Mahinbonu ko‘shkida, Farhod ishqida raqsga tushayotganini tasavvur qiladi [1, 35-b.]. Navoiy dostoni [4] bilan yuzaga kelgan bu intertekstual bog‘lanish yuksak timsollar bilan maishiy hayot o‘rtasidagi masofani kulgili tarzda ochadi. Maddohlarning rahbarga «tushlarida ham tamshanadigan» kishilar sifatida tasvirlanishi [1, 442-b.] esa tushning hatto ong ostiga ham tizim kirib borganini ko‘rsatuvchi satirik obrazga aylanganidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, «Lolazor» romanidagi tush lavhalari uch xil vazifani bajaradi: birinchidan, qahramonning yashirin istaklari va xavotirlarini ochib beradi; ikkinchidan, qahramonning tushni ta'bir qilish usuli orqali uning o‘z-o‘zini aldash odatini fosh etadi; uchinchidan, takror va kinoya vositasida syujet harakatiga hamda satirik ohangning shakllanishiga xizmat qiladi. Tush lavhalarini o‘rganish o‘zbek romanida psixologik tasvir vositalarini tadqiq etishda yangi imkoniyatlar ochadi va undan «O‘zbek adabiyoti tarixi» hamda «Adabiyotshunoslik nazariyasi» fanlaridan amaliy mashg‘ulotlarda foydalanish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Do‘st M. M. Lolazor: roman. – Toshkent: Sharq, 1998. – 560 b.
2. Freud S. The Interpretation of Dreams / transl. by J. Strachey. – New York: Basic Books, 1955.
3. Лотман Ю. М. Культура и взрыв. – Москва: Гнозис; Прогресс, 1992. – 272 с.
4. Navoiy A. Farhod va Shirin // Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 8-jild. – Toshkent: Fan, 1991.